

SHAKESPEARE TRAGEDIYALARIDA INSON RUHIYATINING TALQINI

Xolmirzayeva Zuxra Jamshidovna

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz buyuk yozuvchisi Uilyam Shakespearenig dunyoga mashhur bir nechta asarlari tahlil qilinib, undagi asar qahramonlarining ichki kechinmalari hamda psixologik portreti o'rganiladi va markaziy qahramonlarning ichki ziddiyatlari, axloqiy dilemmalari va fojiali taqdirlari orqali inson tabiatining asosiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, Shakespeare asarlarining kitobxon yuragiga yetib borishi, o'quvchining bu kabi asar namunalariga munosabati, hamda asarning kitobxon yoshlar ongiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shakespeare asarlari, tragediya, Hamlet, Romeo va Juliet, psixologik tasvir, melankoliya.

William Shakespeare (talaffuzi: Uilyam Shekspir; 26-aprel 1564-yil — 23-aprel 1616-yil) — ingliz dramaturgi, shoir va aktyor, dunyoning eng mashhur dramaturglaridan biri, kamida 17 ta komediya, 10 ta xronika, 11 ta fojia, 5 ta poema va 154 sonetdan iborat siklning muallifi. Biroq adibning tragedik ya'ni fojiali asarlari uni qolgan asarlariga nisbatan mashhurroq qilgan, hamda bu asarlar dunyo bo'ylab keng yoyilgan desak yolg'on bo'lmaydi. Uilyam Shekspirning tragediyalarida inson ruhiyatining talqini (psixologik tasviri) asarlarning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Shekspir inson tabiati va uning murakkabliklarini misli ko'rilmagan darajada o'rganib chiqqandek asar personajlarining emotsiyalariga katta urg'u bergan va juda aniq va yaqqol tarzda ochib, tasvirlab bergan. Shu o'rinda tragediya janriga to'xtalib o'tsak, tragediya so'zi yunoncha tragoidio so'zidan kelib chiqqan bo'lib "echki qo'shig'i" degan ma'noni anglatadi. Chunki qadimgi Yunonistonda teatr ijrochilari echki terisidan tikilgan liboslar kiyishgan. Hozirda tragediya so'zi asar yakuni ayanchli qismat bilan tugaydigan voqea-hodisalarga ishlatiladi.

Hamlet (Gamlet) asarini Shekspirning fojiali yakunlanadigan asarlari sirasiga qo'shishimiz mumkin. Hamlet“ (ayrim manbalarda rus tili ta'sirida Gamlet deb ham yoziladi va aytiladi) to'liq nomi „Daniya shahzodasi Hamlet tragediyasi“ (inglizcha: The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark) — Uilliam Shekspirning 1599–1602-yillar o'rtasida yozgan tragediyasi. Pyesadagi hodisalar Daniya qirolligida sodir bo'ladi. Hamletning otasi Qirol Hamletning ruhi o'g'lini amakisi Claudiusdan (Klavdiy) o'ch olishga chorlaydi. Claudius o'z akasini o'ldirib, taxtni qo'lga kiritgan bo'ladi va akasining bevasiga uylanadi. „Hamlet“ Shakespearenig eng uzun pyesasi bo'lib, ingliz adabiyotidagi eng kuchli va ta'sirli tragediyalardan biri hisoblanadi.

Pyesa ko‘p marta qayta hikoya qilingan hamda o‘zgartirilgan. „Hamlet“ Shekspir tirikligidagi eng mashhur pyesalardan biri bo‘lib, hozirgi kunda ham muallifning eng ko‘p sahnalashtirilgan asarlaridan biri hisoblanadi. Shekspir Hamletda monologlar, aql o‘yinlari va telbalik orqali inson ruhiyatining eng yashirin qatlamlarini ochib beradi. Hamlet butun adabiyotdagi eng murakkab personajlardan biridir. Uning ruhiyatining asosiy talqini harakatsizlik va ikkilanish (prokrastinatsiya) atrofida qurilgan. Hamlet o‘ta aqlli va falsafiy fikrlashga moyil, ammo bu uning harakatlariga to‘sqinlik qiladi. U qasos olishdan oldin, vaziyatni chuqur tahlil qilishga, axloqiy mas‘uliyatni tortishga va oqibatlarni o‘lchashga intiladi. Bu esa uning ruhida doimiy ruhiy azob tug‘diradi. Muallif monologlar orqali ichki dunyoni ifodalshga ham katta urg‘u qaratgan. Uning mashhur monologlari, xususan, "Hayot yoki mamot..." ("To be or not to be...") inson mavjudligining ma‘nosi, o‘lim qo‘rquvi va faoliyatning maqsadsizligi kabi universal ruhiy muammolarni aks ettiradi. Bu monologlar uning tashvish va shubhalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zgusidir. Yozuvchi bu asarda Hamletga qaysidir ma'noda jinninamo obraz ham bergan. Hamlet jinnilikni niqob sifatida ishlatadi, bu esa unga haqiqatni bexavotir aytish imkonini beradi. Biroq, bu sun'iy telbalik ostida uning chinakam ruhiy buzilishlari va melanxoliyasi kuchayib boradi.

Shekspirning navbatdagi yurakni ezadigan tragediyasi bu "Romeo va Julietta"dir. Asarning nashr etilgan sanasi 1597-yillarga to‘g‘ri keladi. "Romeo va Julietta" tragediyasi Shekspirning boshqa fojialaridan farqli ravishda, avvalo, yoshlik ehtirosi, muhabbatning qarshiliklari va to‘satdan yetuklikka erishish kabi ruhiy holatlarga e‘tibor qaratadi. Bu asardagi ruhiy talqin ko‘proq tashqi kuchlar (oilaviy adovat) bilan to‘qnash kelgan pok va sof sevgi atrofida qurilgan. Asar boshida Romeo go‘yoki sevgan Roza ismli qiz tufayli g‘amginlik va melanxoliyani boshidan kechirayotgandek tuyuladi. Bu hali haqiqiy chuqur ehtiros emas, balki yoshlikning poetik qayg‘usidir. Julietta bilan uchrashgach, uning ruhiyatida keskin o‘zgarish yuz beradi. Roza uchun bo‘lgan ichki qayg‘uni Julietta tufayli unutadi. Julietta obraziga kelsak, Julietta Kapuletti, asarning boshida itoatkor qizdan o‘z sevgisi uchun kurashuvchi qat’iy irodali ayolga aylanadi. Uning psixologik portreti — bu uning oilaviy ta’qiqlardan va ijtimoiy qoidalaridan ustun chiqqanidan kelib chiqqan holda irodali ekanligini belgilaydi. "Romeo va Julietta" tragediyasining yakuni shunchaki syujetning tugallanishi emas, balki asarning barcha ruhiy keskinliklari va fojiaiy xatolari mujassamlashgan, chuqur ta’sirchan sahnadir. Asar oxirida Veronadagi qabristonda sodir bo‘lgan voqealar zanjiri sevishganlarning yakuniy qurbonligini, ularning oilaviy adovat ustidan erishgan achchiq g‘alabasini va bu halokatli sevgi fojiasining umumiy ma’nosini ochib berishi bilan ham kitobxonni yuragini ezadi.

Xullas, Uilyam Shekspirning tragediyalari inson ruhiyatining nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning eng tub, ziddiyatli va yashirin qatlamlarini ham yoritib

beruvchi abadiy psixologik tadqiqotlar hisoblanadi. Dramaturg o'z qahramonlari, jumladan, Hamletning aql azobi, Romeo va Juliettaning muhabbati orqali, insoniy fojia tashqi kuchlar emas, balki qahramonning o'z ruhiy zaifliklari, axloqiy tanlovlari va impulsiv ehtirolari natijasida yuzaga kelishini isbotlaydi.

Shekspir mohirlik bilan monologlar, gallyutsinatsiyalar va jinnilik sahnalari kabi vositalar yordamida aybdorlik hissi, vijdon azobi kabi murakkab ruhiy holatlarni ochib beradi. Uning fojialari insoniyatning odatiy ahvoli haqida bo'lib, har bir kishining ruhida yashiringan nur va zulmat o'rtasidagi abadiy kurashni tasvirlaydi. Shu sababli, Shekspirning asarlari bugungi kunda ham inson ruhiyatini tushunish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Xolmurodova J., Fayziyeva Sh., Rahmatova Sh. Shekspirning "Hamlet" asari haqida // Science and Education ilmiy jurnali, [444;449]

2.Qosimov A. A., Mamatova M. M. Shekspirning "Hamlet" asari haqida // Ta'lim fidoyilari ilmiy jurnali. – 2020. – №1, qism 1. – B. 43–44. – ISSN 2181-2160.

3.Abdurasulova G.,Amriyev M.,Xayrullayeva G.Uilyam Shekspirning "Romeo va Julietta" asari tahlili // Ilmiy fan xabarnomasi ilmiy elektron jurnali.B. 3-4

4.<https://uz.wikipedia.org>

5.<https://worldlyjournals.com>

6.<https://zenodo.org>